



## ABU RAYHON BERUNIYNING ASARLARIDA FALSAFIY QARASHLARI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Xorazm akademik litseyi

“Ijtimoiy-gumanitar” kofedrasi Tarix fani o'qituvchisi

*Matyaqubov Elyorbek Amonbayevich*

“Tomirlarda buyuk bobolarining qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug-ajdodlarimiz –ning, munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur”.

*Sh.M.Mirziyoyev*

“Yerdagi harorat (issiqlik)ning dastlabki sababi quyosh jismi (tanasi) dan chiqib kelayotgan yorug'lik zarrachalarining oqimi va ular to'lqini shu'lasining yetib kelishi tufaylidir».

*Abu Rayhon Beruniy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyolik qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ilm-fanga qo'shgan salmoqli hissasi, uning ilmiy yondashuvlariga xorijiy olimlarning bergan bahosi, hamda komil inson tarbiyasidagi allomaning pedagogic qarashlari tahlil qilingan va o'r ganilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируется и изучается важный вклад в науку среднеазиатского энциклопедиста Абу Райхана Беруни, оценка его научных подходов зарубежными учеными, педагогические взгляды ученого на воспитание совершенного человека.

**Abstract:** In this article, the important contribution of the Central Asian encyclopedist



*Abu Rayhan Beruni to science, the evaluation of his scientific approaches by foreign*

*scientists, and the pedagogical views of the scholar on the education of a perfect human being*

*are analyzed and studied.*

***Kalit so‘zlar - Uchinchi Renessans, buyuk ensiklopedist olim, Novatorlik, minerologik meros.***

**Kirish.** “Markaziy Osiyolik tabiatshunos olimlarning yaqin o’tmishda nomlari unutilayozgan buyuk ajdodlarimiz nomi va ularning jahon ilm-fani, madaniyatiga qo’shgan ulkan xazinalarini o’rganish katta ilmiy ahamiyatga egadir”, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o’qituvchilar va murabbiylar kuniga bag’ishlangan yig’ilishda hamda “**Oliy Majlisga Murojaatnomasida**” – **Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans -poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo’yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak**” deya takidlaganlar.Uchinchi Renessans poydevorini qurishda Prezidentimizning quyidagi so’zlarini keltirishimiz joiz: “**Hech shubhasiz, o’z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo’lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo’lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda**”. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo’lishning o’zi katta baxt, katta sharafdir. Tarixda bobolarimiz o’z ilmiy kashfiyotlari bilan quyosh misol nur sochishgan. Yoshlarimiz buyuk bobolariga munosib avlod bo’lishlari uchun ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy meroslarini o’rganishlari zarur.



Ana shunday allomalardan biri buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniyidir. Beruniyini yer yuzidagi barcha mamlakatlar aholisi buyuk ensiklopedist olim sifatida yaxshibilishadi.

**“Beruniy turli fan sohalariga qo’shgan hissasini 150 dan ortiq asarlaridan ham ko’rish mumkin.** Ulardan eng yiriklari “Hindiston”, “O’tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar”,

“Qonuni Mas‘udiy”, “Geodeziya”, “Mineralogiya”, “Astronomiya” kabi asarlaridir. Qolganlarini quyidagicha taqsimlash mumkin: Matematikaga oid 22 ta , astronomik asboblar haqida 10 ta, astrologiyaga oid 21 ta,turli fanlar ( fizika, mineralogiya, adabiyot, tarix va boshqa) 38 ta. Turli tillardan tarjima qilingan asarlar 21 ta. Afsuski, Beruniyning bu asarlaridan 30 ga yaqini bugungi kunga qadar yetib kelgan”.

Ushbu asarlar bizga qomusiy bilimlar sohibi - Beruniyning ilmiy qarashlari, jahonshumul ahamiyatga ega bo’lgan kashfiyotlari, tevarak-atrofga, voqeahodisalarga, bir so’z bilan aytganda, tabiatga diniy nuqtai –nazardan qarash mutlaqo hukmron bir paytda ko’rsatgan buyuk shijotlari, dunyoqarashlari, mamlakat siyosiy hayotidagi ishtiroki, shaxsiy hislatlari va h.k. lar haqida tasuvvur hosil qilishimizga imkon beradi. U yashagan davr bizdan qanchalik uzoq bo’lishiga qaramasdan u go’yo bizning zamondoshimizga o’xshaydi. Chunki undagi geniylik tabiat, ilmiy tadqiqot ishlarida qo’llagan usullari bizga yaqqol ko’rinadi. U yuqorida ta’kidlaganimizdek matematik, astronom, geograf, tarixchi, sayohatchi, tilshunos, olim shoir va faylasuf edi. Uning asarlari chuqur falsafiy zavq bilan yozilgan bo’lib, ulardagи ilmiy masalarning matematik tomonidan qarab tekshirilganligi yaqqol ko’rinib turadi.

Agar Beruniyning tarjimai holiga doir bizgacha yetib kelgan manbalarni qator qo’yib, ular ichida eng ishonchlilarini, beradigan ma’lumoti jihatidan mukammalroqlarini ajratish kerak bo’lganda, shubhasiz olimning o’z asarlarini tanlagan bo’lar edik. **Beruniy asarlari – uning jahon fani oldidagi buyuk rolini yaqqol ko’rsatuvchi bamisolı muazzam bir haykaldır.**



**Asosiy qism** O'rta asrning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlari hozirgi zamon fani uchun katta qiziqish uyg'otadi. Chunki Beruniy o'z davrining tajribaviy bilimlarini puxta egallagan olim edi. Ana shu yo'sinda har xil fanlarning haqiqatlarini tasdiqlash va tekshirishda tajribaga murojaat qilish, tajriba kurtaklarini barpo etish, Beruniyning olim va mashhur tabiatshunos sifatidagi asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan Beruniyning merosini tadqiq qiluvchi ko'pgina olimlarning e'tiroficha, u o'z davrining ajoyib qomusiy olimi bo'lgan. Beruniyning turli fanlar sohasi bo'yicha qo'llagan tajribaviy uslubi naqadar foydali ekanligini

**"Minerologiya"** asarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Beruniyning minerologik merosini o'rganuvchi rus olimlaridan biri G.G.Lemmeynuning mineralogiyada qo'llagan uslubi va mineralogiya faniga qo'shgan hissasi to'g'risidagapirib: "Mantiqiy tuzilishlarni kuzatish va tajribada aniqlashni talab etuvchi ilmiy uslub hamda hozirgi zamon fanining talablariga javob beruvchi metoddir, - deydi professor G.G.Lemmeyn, fikrini davom ettirib: Beruniy davrida. tajribaviy fanlar ma'lum taraqqiyotga erishganda va tajribaviy uslub birinchi marta sezilarli darajada tabiatshunoslik amaliyatiga kirayotgan edi» - deydi.

Beruniy tabiiy-ilmiy merosining falsafiy ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, uni turli aniq fanlar bo'yicha ko'targan masalalari o'z davrida olamning umumiyligini yaratishda, ya'ni falsafiy dunyoqarash rejasida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, uning astronomiya (fazo tuzilish, Yerning harakati va hokazo), geologiya (Yerda sodir bo'layotgan keng jarayonlar, Yer ayrim qismlarining kelib chiqishi va tuzilishi), mineralogiya (minerallarning klassifikatsiyasi va ularning paydo bo'lishi), biologiya (tabiiy va sun'iy tanlash va hokazo) kabi ko'pgina fanlar bo'yicha ko'targan masalalarida shuni ko'rish mumkin. Bu yerda Beruniy tabiiy-ilmiy qarashlarining falsafiy qarashlari bilan qo'shilib ketishi hamda birinchisining ikkinchisiga bevosita ta'siri ko'rindi. Novatorlik – bu ulug' olimning ajralmas xususiyatidir. U qaysi bir fan bilan shug'llanmasin, uning ilmiy



tadqiqotlari doimo fanda yangi yo'llarni qidirish, yangi kashfiyotlar yaratish bilan tugaydi.

Buni mineralogiya, astronomiya, geodeziya, matematika va geologiyada yaqqol ko'rish mumkin. Fikrimcha, Beruniyning mashhur tabiatshunos sifatida, yuqorida qayd qilingan, muhim xususiyatlari uning falsafiy qarashlarining shakllanishida rol o'ynagan. Beruniy Aristotelning naturfilosofiyasi bilan bevosita shug'illanishi tufayli, uning o'sha davr naturfilosofiyasi bo'yicha qator masalalarni hal etishi juda qiziqarlidir. O'sha davrdagi tabiatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Aristotelning naturfilosofiyasiga tanqidiy yondashishga, shuningdek, zaif tomonlarining farqiga borish darajasigacha olib keldi. Shuning uchun Aristotelning naturfilosofiyasini diniy nuqtai nazardan tanqid qilishdan farqliroq, Beruniyning tanqidi Stagirit naturfilosofiyasining asossiz tomonlarini fanning yangi ma'lumotlariga tayangan holda qayta qurib chiqishga qaratilgan edi. Ayniqsa, Beruniy tomonidan Aristotelning naturfilosofiyasi metodi ayrim tomonlarining umuman tanqid qilinishi katta ahamiyatga ega. Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi taxmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisobilanadi.

Beruniy Yerning aylanishi masalasiga, har qanday ilohiy fikrlaridan uzoq bo'lган holda geometrik va fizik nuqtai nazardan qaragan. Agar Beruniyning fikricha geometrik nuqtai nazardan ikki nazariya teng huquqli bo'lsa, undan tashqari Yer harakatining tan olinishi ayrim qiyinchiliklarni hal etsa, lekin fizik nuqtai nazardan tekshirishda Beruniy Yer harakati ta'limotidan kelib chiquvchi barcha xulosalarni aniqlashda qator tadqiqotlar olib bordi. Ptolomey va Aristotellarning agar Yer harakat qiladigan bo'lsa, barcha narsalar va hayvonlar bundan uchib ketishi mumkin degan e'tirozlariga qarshi chiqib, Yer bilan jismlar o'rtasida o'zaro tortilish kuchlarining mavjudligini e'tirof etgan. Shuningdek, Beruniy Yer harakatini tan olgan holda qator muhim muammolarning yechilishini talab qiluvchi masalani qo'yadi va yerning ekvator bo'ylab harakat tezligini hisoblab, undan kelib chiquvchi tezlikning haqiqiy katta



hajmlariga o'zi ishonmay qoladi. Lekin u ko'rsatgan Yerning aylanish tezligi umuman hozirgi zamonda hisoblab chiqilgan tezlikdan deyarli uzoq bo'lмаган. Bu o'z zamonasi va ayniqsa, keyingi davrlar uchun katta ahamiyatga ega bo'лган. Buyuk mutafakkirlar o'rtasidagi falsafiy munozaralarning tahlil qilinishi shuni ko'rsatadiki, Beruniy Aristotel qarashlarining ayrim zaif tomonlarini, haqiqat va tajribaga ko'prok asoslanib, Aristotel naturfilosofik ta'limotlarining ko'pgina asossiz tomonlarini aniqlashga uringan.

Bularning hammasi Beruniyga Aristotel ta'limoti, ko'pgina ijobiy tomonlarini ko'rishi va qadrlashiga halaqt bermay, aksincha, Ibn Sino bilan birga O'rta Osiyo ilg'or ijtimoiy falsafiy lager tevaragida jipslashishga, uning yanada taraqqiy etishiga va mustahkalanishiga katta hissa qo'shdi.

Yuqorida qayd qilinganlarning barchasi insoniyat tafakkuri tarixida Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Xorazmlik buyuk alloma, ensiklopedist olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy o'zining butun hayoti davomida avlodlariga ulkan meros qoldirdiki, bu meros hali-hanuzgacha butun jahon ahli uchun xizmat qilmoqda. Beruniyning tabiiy – ilmiy va falsafiy qarashlari asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Buyuk olim o'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot ma'danshunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. "Odamborki, fikr yuritish qobiliyatiga ega. Mutafakkir iborasining o'zagi ham fikrdir. Lekin har bir fikr yurita oladigan kishiga nisbatan mutafakkir iborasini qo'llab bo'lmaydi. Yuksak teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga nafi tegadigan siymolarnigina mutafakkir deyish mumkin. Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiylar mutafakkirlar hisoblanadi".



Shunday buyuk mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod qilgan. Uning ilmiy merosi juda keng va rang-barang. Beruniyning ilmiy ish sohasidagi **1035-1036-yillarda Beruniy o'z ilmiy ishlarining ro'yxatini tuzadi.**

Bunda shuvaqtgacha yozgan kitob va risolalari **113 taga** yetgani ko'rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarinham qo'shsak u qoldirgan ilmiy meros **152 kitob** va risoladan iborat ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonlik buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining nihoyatda boyligidan dalolat beradi. Beruniyning ilmiy merosi O'zbekiston va undan tashqari duyoda ham chuqur o'rganilmoqda. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima qilinmoqda.

O'zbekiston fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Toshkent Texnika Universiteti, metro bekati uning nomi bilan ataladi. Toshkent shahri, Samarqand shahri, Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazmda Beruniy nomida ko'cha, maktab va boshqa muassasalar bor. Dunyoda birinchi marta O'zbekistonda topilgan mineralga Beruniy nomi berildi. Beruniy nomli O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofati tasis etilgan. Olimga Toshkent, Xiva, Beruniy shaharlarida haykal o'rnatilgan.

**“Tarix xotirasi, xalqning jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini, milliy iftixorini tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat mihim o'rinn tutadi”.** Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqorolik ongini shakllantirmoqda, axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan yig'ilishdagi xamda Oliy Majlisga Murojatnomasi ma'ruzasi. 31.10,23.12. 2020 y.



2. P.G. Bulgakov. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent. Fan .1966, 6-bet.
3. A.J.Sharipov, Beruniy falsafiy qarashlari va Aristotelning naturfilosofiyasi. Beruniy tug'ilgan kunining1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam. Toshkent, FAN, 1973, 72-b. 14
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild, Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti, 2000
5. <http://www.ziyouz.com/index.php?option=view&id=981&Itemid=228>
6. Abu Rayhon Beruniy . Tanlangan asarlar. «Fan» nashriyoti-Toshkent-1998